

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024 1-SON
ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|--|-----|
| Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev | |
| Hududiy tashkil etishning ba'zi nazariyalarida aholi omilining o'rni va ahamiyati | 6 |
| K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov | |
| Landshaftlar vertikal tabaqlanishini matematik modellashtirish..... | 15 |
| Q.S.Yarashev, B.B.Yusupov | |
| Ekoturizim resurslardan oqilona va samarali foydalanishning ayrim masalalari (Dehqonobod tumani misolida) | 22 |
| T.J.Jumayev, Sh.B.Qurbanov, K.O.Daljanov | |
| Tog'li hududlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va hududiy tashkil etishning ba'zi masalalari | 30 |
| O.T.Mirzamahmudov | |
| Farg'ona vodiysi adir agrolandshaftlari va ularni joylashtirish yo'llari | 36 |
| O.M.Qo'ziboyeva, Z.Sherbayeva | |
| Janubiy Farg'ona daryolarining suv rejimiga iqlim o'zgarishining ta'siri | 41 |
| G.X.Xolbayev, X.T.Egamberdiyev | |
| Xavfli meteorologik hodisalarining takrorlanuvchanligini baholash (Farg'ona viloyati misolida) .. | 45 |
| Sh.Z.Jumaxanov, Sh.Sh.Zoirjonov | |
| Aholi xulq-atvorining etnolingvistik xususiyatlarini sotsiologik so'rovlar asosida o'rganish | 54 |
| R.Y.Xoliqov | |
| Farg'ona vodiysi paragenetik landshaftlari o'ttasidagi geokimyoiy migratsion jarayonlarning geoekologik muhitga ta'siri..... | 61 |
| K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov | |
| Landshaftlarning antropogen modifikatsiyalanishi va ularning tadqiq etishning ilmiy-nazariy masalalari..... | 64 |
| Y.I.Ahmadaliyev, O.I.Abdug'aniyev, J.G'.Eminov | |
| Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining reprezentativligi va samaradorligini baholash | 68 |
| D.G'.Mo'minov, O.Q.Tobirov | |
| Farg'ona viloyati ekoturistik imkoniyatlarini baholashning bazi jihatlari | 81 |
| K.M.Xakimov | |
| Antroponomik model: milliy familiya va uning zaruriyati haqida | 87 |
| Y.B.Raxmatov | |
| Buxoro viloyatining cho'l xududlarida suvdan samarali foydalanishning geografik muammolari | 93 |
| R.T.Pirnazarov | |
| Shohimardonsov havzasida turizmni rivojlantirishning tabiiy geografik imkoniyatlari | 96 |
| P.R.Qurbanov | |
| Janubiy O'zbekistonda urbanizatsiya rivojlanishining sotsial jihatlari..... | 103 |
| H.A.Oblaqulov, Y.R.Buranov, M.Sh.Qo'ziyeva | |
| Navoiy viloyat aholisining dinamikasi va hududiy joylashuvi | 113 |
| Z.X.Madaminov | |
| Iste'mol geografiyasi fani, uning rivojlanishi, iste'mol savatchasi tushunchasi va uni tadqiq qilish | 118 |
| E.G'.Mahkamov | |
| Farg'ona vodiyisida turistik-rekreatsion faoliyatni tashkil etishni takomillashtirish yo'nalishlari..... | 122 |
| Z.A.Temirov | |
| Mehnat resurslari va iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi o'ttasidagi hududiy muammolarni geografik o'rganish..... | 128 |
| M.M.Avezov, A.M.Elmurotova | |
| Kattaqo'rg'on tumanining geologik va orografik tuzilishiga umumiyl tabiiy geografik tavsif | 135 |
| M.R.Usmanov | |
| O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar..... | 140 |

NAVOIY VILOYAT AHOLISINING DINAMIKASI VA HUDUDIY JOYLASHUVI
ДИНАМИКА И ТЕРРИТОРИАЛЬНОЕ РАСПОЛОЖЕНИЕ НАСЕЛЕНИЯ НАВОЙСКОЙ ОБЛАСТИ

DYNAMICS AND TERRITORIAL LOCATION OF THE POPULATION OF NAVOVY REGION

Oblaqulov Husan Abdisayit o'g'li¹

¹Navoiy davlat pedagogika instituti,
geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasi v.v.b. dotsenti g.f.f.d (PhD)

Buranov Yorqin Raxmatullayevich²

²Navoiy davlat pedagogika instituti,
geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasi katta o'qituvchisi

Qo'ziyeva Maftuna Shavkat qizi³

³Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya

Navoiy viloyati maydoni jihatdan respublikamizda eng katta va aholisi jihatdan eng kam viloyalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada viloyatning demografik vaziyatidagi hududiy tafovutlar, aholining zichligi va joylashushi statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Shahar va tumanlar kesimida aholi dinamikasi, urbanizatsiya jarayonlari, qishloq tumanlari aholisi sonining ko'payishi yuqori ekanligining sabablari o'rganilgan. Shuningdek, qishloq tumanlari aholi zichlik ko'rsatkichlari bo'yicha guruhlarga ajratilgan.

Аннотация

Навоийская область – один из самых крупных и самых маленьких по площади регионов нашей республики. В данной статье на основе статистических данных анализируются региональные различия в демографической ситуации региона, плотности населения и местонахождении. Изучены динамика населения, процессы урбанизации, а также причины высокого прироста населения сельских округов в разрезе городов и районов. Также сельские округа делятся на группы по показателям плотности населения.

Abstrakt

Navoi region is one of the largest and smallest regions of our republic. This article uses statistical data to analyze regional differences in the region's demographics, population density and location. Population dynamics, urbanization processes, as well as the reasons for the high population growth of rural districts in the context of cities and regions have been studied. Rural districts are also divided into groups based on population density.

Kalit so'zlar: Aholi, migratsiya, zichlik, shahar, qishloq, tabiiy o'sish, urbanizatsiya, aholi manzilgohi.

Ключевые слова: Население, миграция, плотность, городское, сельское, естественный прирост, урбанизация, расселение населения.

Key words: Population, migration, density, urban, rural, natural growth, urbanization, population settlement.

KIRISH

Bugungi kunda Navoiy viloyati o'zining demografik holati bo'yicha respublikaning murakkab hududlaridan biri hisoblanadi. Buning ta'sirida viloyatda ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolar vujudga kelmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, sanoat va qishloq xo'jaligi hamda boshqa sohalarda yangi ishchi o'rinnlari yaratilib, mehnat resurslariga bo'lgan talab qisman bo'lsa-da qondirilmoqda. Shu bilan birga ayrim tumanlarda ushbu dolzarb muammoga yetarlicha e'tibor berilmasligi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat yanada murakkablashib bormoqda.

Viloyatda ijtimoiy-iqtisodiy muammolar ko'p jihatdan aholining tabiiy o'sishi, tarkibi, hududiy joylashushi hamda mehnat resurslaridan oqilona va samarali foydalanish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida Navoiy viloyatida demografik vaziyat shakllanishining xususiyatlari bo'yicha, tizimli yondashuv, qiyosiy va solishtirma tahlil, statistik va boshqa usullardan foydalanildi

Demografik jarayonlar, hududlar aholisining o'sishi va joylashishi bo'yicha xorij va respublikamizda ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, M.Q.Qoraxonov, A.A.Qayumov, M.R.Bo'riyeva, A.S.Soliyev, O.B.At-Mirzayev, R.A.Ubaydullayeva, Q.X.Abduraxmonov,

X.X.Abdurahmonov, Z.N.Tojiyeva, R.Qodirov, H.Abuvaliyev, N.Muxammedova, H.Oblaqulov kabi tadqiqotchilar ishlarida demografik jarayonlarni o'rganish manbalari, tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralishning demografik mohiyati, aholining son va sifat xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy holati, aholi migrasiyasiga oid bir qator ishlar amalga oshirilgan

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Navoiy viloyatinning maydoni 111,1 ming kv.km, aholisi 2023 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 1060,5 ming kishi. Viloyat hududi jihatdan O'zbekistonda eng katta bo'lib, u respublika maydonining 24,7 foizini tashkil qiladi. Vaholanki, bu yerda respublika aholisining 3 foizi istiqomat qiladi. Viloyatda aholi zichligi 1 kv. km ga 9,5 kishiga yaqinlashmoqda. Bu nafaqat O'zbekiston balki MDH bo'yicha ham eng past ko'satkich hisoblanadi.

Viloyatda shahar aholisining o'sishi yoki urbanizatsiya jarayoni respublika ko'satkichiga qaraganda tezroq kechgan, qishloq aholisi esa nisbatan sekinroq ko'paygan.

1-jadval

Navoiy viloyati aholisi sonining o'sishi (ming kishi hisobida)

| Yillar | Navoiy viloyati | | |
|--------|-----------------|----------------|-----------------|
| | jam'i aholi | shahar aholisi | qishloq aholisi |
| 1995 | 731,6 | 291,6 | 440,0 |
| 2000 | 783,3 | 316,7 | 466,6 |
| 2005 | 810,2 | 321,6 | 488,6 |
| 2010 | 851,6 | 420,9 | 430,7 |
| 2015 | 913,2 | 448,5 | 464,7 |
| 2023 | 1060,5 | 519,6 | 540,9 |

Jadval Navoiy viloyati, statistika bosh boshqarmasining ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Aholining tabiiy ko'payishi, o'sishi, harakati bo'yicha viloyat tumanlari bir-biridan ancha farq qiladi. Masalan, Zarafshon shahri, Xatirchi, Nurota va Tomdi tumanlarida aholi sonining o'sishi yuqoriroq. 1995-2023 yillar mobaynida mazkur tumanlarning aholisi ko'payib kelmoqda.

Demografik salohiyati bo'yicha Xatirchi tumani viloyatda eng yetakchi o'rinda bo'lib, uning aholisi 210,5 ming kishini tashkil etsa, aksincha, Tomdi tumanining aholisi atigi 15,8 ming kishiga teng. Xuddi shunday, aholisi kam bo'lgan tumanlardan biri Konimex tumanida 37,4 ming kishi yashaydi. Aynan ana shu tumanlar aholisining o'sish sur'ati nisbatan past bo'lgan hududlar guruhiga kiradi (1-jadval).

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, viloyatning demografik vaziyatida birmuncha hududiy tafovutlar ko'zga tashlanadi. Bu farq tumanlarning geografik joylashgan o'rni, tabiiy sharoiti, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatidan kelib chiqadi. Shu bois, viloyat hududidagi qadimdan rivojlangan Karmana, Qiziltepa, Navbahor va Xatirchi tumanlari hudularida demografik salohiyatning nisbatan yuqoriligini kuzatish mumkin. Aksincha Uchquduq, Tomdi, Nurota tumanlarida aholining ko'payish sur'atlari pastroq. Nurota tumanida bunga aholining milliy tarkibidagi o'zgarishlar sabab bo'lgan bo'lsa, Uchquduq va Tomdi tumanlarining qumli cho'llar o'rnida keyinchalik paydo bo'lganligi va cho'l sharoitini aholi yashashi uchun ancha noqulay deb baholashimiz mumkin. Ayni vaqtida Karmana tumanidagi vaziyatni uning viloyat markaziga yaqin joylashganligi ta'sir ko'rsatadi.

Ta'kidlash joizki, Uchquduq, Tomdi va Konimex tumanlarida dastlabki yillarga nisbatan aholining ko'payish darajasi ancha o'sganligi bois, bu tumanlarda ham so'ngi yillarda mehnat resurslari bilan ta'minlanish darajasi yaxshilandi. Shu bilan birga viloyatning ayrim tumanlarida aholining tabiiy o'sish ko'rsatkichida kamayish holatlari ham kuzatilmoxda. Masalan, Karmana tumanida 2010 yilda tabiiy o'sish har 1000 kishi hisobiga 17,8 bo'lgan bo'lsa, 2018 yilda bu ko'rsatkich 17,3 ga tushib qolgan; Navbahor tumanida, yuqoridagilarga mos ravishda 18,6 dan 17,5 ga kamaygan.

Aholi tabiiy o'sishining Navoiy viloyati uchun bunday kamayib borishi bir qator ijtimoiy va iqtisodiy muammolar bilan bog'liqdir. Aholi sonining o'zgarishi viloyatning barcha shahar va tumanlarida ham kuzatiladi, ammo bu ko'rsatkich o'ziga xos hududiy tafovutlarga ega (2-jadval).

Navoiy viloyati shahar va tumanlari aholisining dinamikasi

| Ma'muriy hududiy birliklar | Aholi soni (ming kishi) 1995 y. | Aholi soni (ming kishi) 2023 y. | Aholi sonining o'sishi % hisobida |
|---------------------------------------|--|--|--|
| Shaharlar | | | |
| Navoiy | 125,5 | 157,2 | 125,2 |
| Zarafshon | 60,0 | 86,9 | 144,8 |
| G'ozg'on | | 9,1 | |
| Tumanlar | | | |
| Konimex | 41,6 | 37,4 | 89,9 |
| Qiziltepa | 101,0 | 159,8 | 158,2 |
| Navbahor | 71,8 | 119,3 | 166,1 |
| Nurota | 54,4 | 88,3 | 162,3 |
| Tomdi | 28,1 | 15,8 | 56,2 |
| Uchquduq | 41,5 | 39,2 | 94,4 |
| Xatirchi | 131,6 | 210,5 | 159,9 |
| Karmana | 76,1 | 136,4 | 179,2 |
| Viloyat bo'yicha | 731,6 | 1060,5 | 144,9 |

Jadval Navoiy viloyat statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Yuqorida 2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, keyingi 28 yil ichida Navoiy viloyati aholisi 144,9 foiz ortgani holda Zarafshon shahri, Qiziltepa va Xatirchi tumanlarida u 144-160 foiz, Navbahor, Nurota, Karmana tumanlarida 160-179 foizga hamda Navoiy shahrida esa 125,2 foizga ortgan xolos. Shu bilan birga Uchquduq, Konimex va Tomdi tumanlarida aholining kamayib ketishiga migrantsion jarayonlar sabab bo'lgan [5].

Viloyat shahar va qishloq aholisining o'sish sur'atlari keyingi vaqtarda respublika shahar va qishloq aholisi ko'rsatkichlariga mos ravishda kamayib bormoqda [4]. Bunday holatni viloyatda aholining yerga va uy-joyga bo'lgan talabini qondirishning qiyinlashgani hamda viloyat hududlarida yil sayin ekologik holatning salbiylashuvi (cho'llashuv jarayonining kuchayib ketishi, tuproqlar degradatsiyasi, ichimlik suvning taqchilligi, iqlimi o'zgarishlar va h.k.) bilan izohlash mumkin.

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadi, xuddi shu yillarda shahar aholisining salmog'i ham ma'lum darajada ortib borgan. Shaharlarda aholi turmush darajasining yaxshilanib borishi Navoiy aglomeratsiyasi bilan bog'liq o'zgarishlar sabab bo'lgan, deb baholasak to'g'ri bo'ladi. Keyingi yillarda viloyat shaharlarida qurilish ishlarining izga tushib, hayotiy zarur inshootlarning qurib bitkazilishi ham shahar aholisi sonining ortishiga olib keldi. Hozirgi paytda viloyatning shahar joylarida jami aholining 48,9 foizi yashaydi. Biroq, bu ko'rsatkich respublika o'rtacha darajasidan pastroq. O'ylaymizki, keyingi yillarda viloyat shahar aholisining nisbatan tez ko'payishi bunday farqning yanada qisqarishiga olib keladi.

Aholi sonining o'sishi turli yillarda o'ziga xos xususiyatga ega bo'ldi. Chunonchi, viloyat qishloq, aholisi 2000-2005 yillarda 22 ming, 2005-2010 yillarda 57,9 ming 2010-2015 yillarda 34 ming kishiga ko'paygan bo'lsa, 2019 yil 1 yanvar holatiga qishloq aholisining umumiyo soni 501,2 ming kishini tashkil qilgan [5].

Viloyat aholisining o'sish ko'rsatkichlari asosan qishloq aholisi sonining ortib borishi bilan bog'liq holda kechmoqda. Chunki, qishloq joylarda tabiiy o'sish nisbatan yuqori. Lekin bu jarayon viloyatning barcha tumanlarida bir xilda emas. Ayni paytda Navoiy shahri va Karmana tumani aholi tabiiy ko'payishining nisbatan pastligi bilan ajralib turadi.

Tabiiy o'sish sur'atlari, xususan Xatirchi va Uchquduq tumanlarida yuqori. Ushbu tumanlarning qishloq aholisi viloyat qishloq aholisining 24 foizini tashkil etadi. Tabiiy ko'payish yuqoriligining asosiy sabablaridan biri o'lim ko'rsatkichining pasayib borishidir. Mustaqillik yillarda aholini ijtimoiy muhofaza qilish dasturi doirasida viloyat aholisining tibbiy xizmat bilan ta'minlanganlik darajasi yaxshilanib bormoqda. Viloyatda bemor o'rirlari 10 ming kishiga 41,8 tani tashkil qiladi, ambulatoriya-poliklinika muassasalari xizmati bo'yicha har 10 ming kishiga 154,0 ta shifokor to'g'ri keladi.

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, 1995-2023 yillar oraliq'ida viloyat bo'yicha aholi soni 328,9 ming kishiga yoki 144,9 foizga ortgani holda, bu ko'rsatkich Nurota tumanida 162,3, Karmana tumanida 179,2, Navbahorda 166,1, Qiziltepa tumanida 145,3, Xatirchi tumanida 145,6, Zarafshon shahrida 135,5 va Navoiy shahrida 125,2 foizni tashkil etgan. Qolgan tumanlarda

aholining o'sish ko'rsatkichlari 95 foizdan past. Chunonchi, viloyat bo'yicha o'ttacha 1 kv, kmga to'g'ri keluvchi aholi soni 9,5 kishiga ortgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Navoiy shahrida 2620,4 ming kishiga, Zarafshon shahrida 4347,8 ming kishi, Xatirchi tumanida 148,3, Karmanada 145,2 kishiga ko'paygan. Ayni vaqtda Qiziltepa 73,0, Navbahor 76,0, Nurota 14,9 tumanlarida esa ushbu jarayon viloyatning o'ttacha ko'rsatkichidan 1,5-2 va hatto 3 barobar yuqoriligini, eng past ko'rsatkich Konimex (4,1 kishi), Tomdi va Uchquduq (0,4-0,8 kishi) tumanlarida aholining kuzatiladi [3].

Viloyat aholisining hududiy tarkibini qishloq hamda shahar joylar, turli yiriklikdagi qishloq va shahar aholi manzilgohlari hamda ma'muriy tumanlar doirasida yoki turli xil tabiiy geografik landshaftlar miqyosida ko'rish mumkin. Masalan, aholi soniga ko'ra viloyatda tumanlar bir-biridan ajralib turadi. Ayni vaqtda Tomdi, Uchquduq, Konimex tumanlarining demografik salohiyati ancha pasaygan. Avvalroq ta'kidlaganimizdek, viloyatning shahar joylarida jami aholining 48,9 foizi yashaydi. Viloyatda 7 shahar va 47 shaharcha mavjud, Viloyat markazi Navoiy shahri aholisi soni 157,2 ming kishi (3-jadval).

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2000-2018 yillar oraliq'ida viloyatda umumiy qishloq aholisining mutloq ko'payishi 34,6 ming kishiga teng bo'lgan. Ushbu yillarda Xatirchi, Qiziltepa, Navbahor tumanlari bu borada yetakchilik qilgan. Hozirda ham mazkur tumanlar aholisi viloyat qishloq aholisining 69 foizini tashkil qiladi. Oxirgi yillarda 2020-2023 yillarda shahar aholisi ulushi kamayib qishloq aholisi ulushi ko'payganini ko'rishimiz mumkin [3].

Viloyat hududida aholi qadimdan suv manbalariga yaqin va uning atrofidagi joylarda yashashga, dehqonchilik va chorvachilik qilishga moslashib kelgan. Nurota tog'larining janubiy qismidan oqib o'tadigan Zarafshon daryo vodiysi atrofida aholi juda zinch joylashgan.

3-jadval

Navoiy viloyat aholisining hududiy tarkibi, ming kishi hisobida

| | 1995 yil | | | 2023 yil | |
|-------------------------|---------------------|---------------|-------------------------------------|---------------|-------------------------------------|
| | Maydoni, kv. km. | Aholi soni | Aholi zichligi. 1 kv.km ga kishi | Aholi soni | Aholi zichligi, 1 kv.km.ga kishi |
| Shahrlar | | | | | |
| Navoiy | 0,05 | 125,5 | 2510 | 157,2 | 2620,4 |
| Zarafshon | 0,02 | 60,0 | 3000 | 86,9 | 4347,8 |
| G'ozg'on | | | | 9,1 | 15,5 |
| Tumanlar | | | | | |
| Konimex | 9,14 | 41,6 | 4,6 | 37,4 | 4,1 |
| Qiziltepa | 2,19 | 101,0 | 46,1 | 159,8 | 73,0 |
| Navbahor | 1,57 | 71,8 | 45,7 | 119,3 | 76,0 |
| Nurota | 6,53 | 54,4 | 8,3 | 88,3 | 14,9 |
| Tomdi | 42,49 | 28,1 | 0,7 | 15,8 | 0,4 |
| Uchquduq | 46,63 | 41,5 | 0,9 | 39,2 | 0,8 |
| Xatirchi | 1,42 | 131,6 | 92,7 | 210,5 | 148,3 |
| Karmana | 0,95 | 76,1 | 80,1 | 136,4 | 145,2 |
| Viloyat bo'yicha | 110,99 | 731,6 | 6,6 | 1060,5 | 9,5 |

Jadval Navoiy viloyat statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Yuqorida jadval ma'lumotlaridan ko'rilib turganidek, qadimdan o'zlashtirilgan, urbanizatsiya jarayonlari nisbatan yuqoriq bo'lgan tumanlarda aholining o'ttacha zichlik ko'rsatkichi ancha yuqori, keyinroq o'zlashtirilgan va sanoat sustroq rivojlanayotgan tumanlarda esa bu ko'rsatkich ancha past.

Keyingi yillarda kichik korxonalar, xususiy ishlab chiqarish firmalari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalarning qishloq aholi manzilgohlari ham qurilib, ishga tushirilishi natijasida aholi manzilgohlari kattalashib, bir-biriga tutashib ketish holatlari kuzatilmoqda [1].

**Navoiy viloyati tumanlarining aholi zichligi bo'yicha
guruhanishi (01.01.2023 y)**

| Guruh-lar | Guruhlarga mansub tumanlar | Aholi soni ming kishi | Jami aholiga nisbatan foizda | O'rtacha aholi zichligi 1 kv. km. ga kishi |
|-----------|----------------------------|-----------------------|------------------------------|--|
| 1 | Xatirchi, Karmana | 346,9 | 41,1 | 146,3 |
| 2 | Navbahor, Qiziltepa | 279,1 | 33,1 | 74,2 |
| 3 | Nurota, Konimex | 125,7 | 14,9 | 8,1 |
| 4 | Tomdi, Uchquduq | 92,4 | 10,9 | 0,6 |

Jadval Navoiy viloyati statistika Bosh boshqarmasining ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Yuqorida statistik ma'lumotlar tahlilidan kelib chiqib, viloyat tumanlarining aholi zichligi bo'yicha guruhshtirganda birinchi guruhga Xatirchi va Karmana tumanlari, ikkinchi guruhga Navbahor va Qiziltepa tumanlari, uchinchi guruhda Nurota va Konimex tumanlari, to'rtinchi guruhda Tomdi va Uchquduq tumanlari turadi (4-jadval).

XULOSA

Umuman olganda, demografik vaziyat tahlili shuni ko'rsatadi, Navoiy viloyatida aholi soni asosan tabiiy ko'payish hisobiga o'sib bormoqda. Ayniqsa qishloq tumanlarida aholi soni o'sishining yuqoriligi saqlanib qolmoqda. Demak, qishloq tumanlarining ijtimoiy-demografik rivojlanishi joylarda ijtimoiy infratuzilma tizimi rivojlantirishni taqozo etadi. Aholining joylanishiga asosan hududlarning yer va ayniqsa suv bilan ta'minlanganligi hamda ularning yirik urbanizatsiya markazlariga yaqinligi ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurahmonov Q.X. va boshqalar. Demografiya. Darslik. - T.: "Iqtisodiyot", 2014.
2. Bo'riyeva M.R. Tojiyeva Z.T. Aholi geografiyasi (o'quv qo'llanma)-Toshkent.-2000 y
3. Navoiy viloyat statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari
4. Soliyev A.S. O'zbekiston geografiyasi – T.: 2014.-377 b.
5. O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari